

AHOLINING MEXANIK HARAKATLARI KO'RSATKICHLARI

U.Xudayberdiyev

Samarqand iqtisodiyot va servis institut dotsenti, i.f.n.

S.A.Babanazarova

Samarqand iqtisodiyot va servis institut o'qituvchisi, PhD.

Annotatsiya: maqolada aholining mexanik harakat ko'rsatkichlari, ularni hisoblash usullari, mutloq va nisbiy mexanik harakat ko'rsatkichlari, ularga ta'sir qiluvchi omillar hamda O'zbekiston aholisining mexanik harakat ko'rsatkichlari dinamikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Migratsiya, immigratsiya, emmigratsiya, ko'chib kelganlar koeffitsiyenti, ko'chib ketganlar koeffitsiyenti, mexanik o'zgarish (ko'payish yoki kamayish) koeffitsiyentlari.

Mamlakat (hudud) aholi soni migratsiya hisobiga ham o'zgaradi. Migratsiya so'zi lotincha bo'lib, ko'chish ma'nosini bildiradi. Migratsiya ikki xil ya'ni mamlakatga (hududga) aholining ko'chib kelishi (immigratsiya) yoki mamlakatdan (hududdan) aholining ko'chib ketishi (emmigratsiya) bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Aholining bir hududdan ikkinchi hududga yoppasiga ko'chishi turli sabablarga asosan bo'lishi mumkin. O'zbekiston aholisi ko'p millatli bo'lib, hozirgi paytda 130 dan ortiq millat va elatlar aholisi tinch-totuv, Konstitutsiyaga asosan teng huquqlarga ega holda yashamoqda. O'zbekistonda qo'shni mamlakatlar millatlari bo'lmish: tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, turkmanlar ko'p yashaydi. Ulardan tashqari ruslar, qrim tatarlari, mesxeti turklari, koreyslar va boshqa millat vakillari ham ko'pchilikni tashkil etadi. Ruslar O'rta Osiyo xonliklarini chor Rossiyasi bosib olgan paytlarda, ayniqsa sobiq SSSR paytida juda ko'plab ko'chib kelishgan. Chunki sobiq SSSR paytida tuman, viloyat kommunistik partiya qo'mitasining 2-sekretarlari, yirik korxonalar va tashkilot rahbarlari albatta rus millatiga mansub kishilar bo'lishgan. Qrim tatarlari va mesxeti turklari esa 2 – Jahon urushi davrida Stalin buyrug'iga asosan shoshilinch ravishda O'rta Osiyo respublikalariga surgun qilingan. Mehmondo'st o'zbek xalqi o'z uylaridan ularga joy bergan, qiyinchiliklarga qaramasdan oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan yordam bergan.

1985-1990 yillarda sobiq SSSRga M.S.Gorbochev prezidentlik qilgan davrlarda millatlarga erkinlik berilib, qrim tatarlarning ma'lum qismi o'z yurtlariga, yahudiylar esa Isroil va AQSH davlatlariga ko'chib keta boshladilar.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida ruslar, ukrainlar, Farg'ona voqeasidan (1989 yil may oyida) keyin mesxeti turklari ko'plab ko'chib keta boshladi. Qozog'iston ham poytaxtini Ostona shahriga ko'chirgandan (Olma-ota shahridan)

keyin qozoqlarning ham ma'lum qismi ko'chib ketdi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki Rossiyaga ko'chib ketganlar sovuqqa, shart-sharoitga o'rganmaganligi uchun, mesxeti turklari esa ularning qadimiy joylari boshqalar tomonidan egallanganligi uchun ularning bir qismi O'zbekistonga qaytib ko'chib keldilar. Shunday qilib aholi migratsiyasi tegishli organlarda qayd qilinadi va hisobga olib boriladi. Aholining migratsiyasi bilan bog'liq harakati mexanik harakat deb aytiladi. Aholining mexanik harakati mutloq miqdorlarda (necha kishi ko'chib keldi, necha kishi ko'chib ketdi) va 1000 aholiga nisbatan nisbiy miqdorlarda qayd qilinib, o'rganiladi. Aholi mexanik harakati nisbiy ko'rsatkichlari:

- Ko'chib kelganlar koeffitsiyenti;
- Ko'chib ketganlar koeffitsiyenti;
- Mexanik o'zgarish (ko'payish yoki kamayish) koeffitsiyentlari bilan ifodalanadi.

Migratsiya ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Agarda aholi mamlakat ichida bir hududdan (viloyatdan) ikkinchi bir hududga (viloyatga) ko'chib o'tsa, bunday ko'chish ichki migratsiya hisoblanadi. Agarda aholi mamlakatdan umuman boshqa davlatga ko'chib ketsa, yoki buning aksicha boshqa davlatdan mamlakatga ko'chib kelsa, bunday ko'chish tashqi migratsiya hisoblanadi.

Mexanik harakat nisbiy ko'rsatkichlari quyidagicha hisoblanadi:

1. Kelganlar koeffitsienti (Kk_k) boshqa joylardan ushbu aholi punkitiga doimiy yashash uchun ko'chib kelganlar sonini 1000 ko'paytirib, aholi o'rtacha soniga bo'lamiz.

$$Kk_k = \frac{\text{ko'chib kelganlar soni} \times 1000}{\text{aholi o'rtacha soni}}$$

2. Ketganlar koeffitsienti (Kt_k) – ushbu aholi punkitidan boshqa joyga doimiy yashash uchun ko'chib ketganlar sonini 1000 ga ko'paytirib aholining o'rtacha soniga bo'lamiz.

$$Kt_k = \frac{\text{ko'chib ketganlar soni} \times 1000}{\text{aholi o'rtacha soni}}$$

3. Aholining mexanik harakat koeffitsienti doimiy yashash uchun ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar o'rtasidagi farqni 1000 ko'paytirib, aholi o'rtacha soniga bo'lish bilan topiladi.

Agarda ko'chib kelganlar soni ko'chib ketganlar sonidan ko'p bo'lsa, unda mexanik o'sish koeffitsienti aniqlanadi.

$$Mo_k = \frac{(ko'chib\ kelganlar - ko'chib\ ketganlar) \times 1000}{aholi\ o'rtacha\ soni}$$

$Mo_k \rightarrow$ aholining mexanik o'sish koeffitsienti.

4. Agarda ko'chib ketganlar soni, ko'chib kelganlar sonidan ortiq bo'lsa, unda mexanik kamayish koeffitsientini (Mk_k) aniqlash lozim.

$$Mk_k = \frac{(ko'chib\ ketganlar - ko'chib\ kelganlar) \times 1000}{aholi\ o'rtacha\ soni}$$

Har bir hudud miqyosida aholining tabiiy va mexanik o'zgarishi natijasida, aholi sonining istiqboli aniqlanadi. Hududlar xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish rejalarni belgilashda foydalaniladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mustaqillikning dastlabki yillarida turli sabablar bilan ko'chib ketganlar soni ko'p bo'lgan. 2000 yilda ko'chib kelganlar soni – 145,9 ming kishi bo'lgan holda, ko'chib ketganlar soni – 212,5 ming kishini tashkil etib, saldosini – 66,6 ming kishini tashkil etgan. Keyingi yillarda ko'chib ketganlar soni bilan ko'chib kelganlar soni tenglashib borayapti. Bu xulosaning to'g'riligini O'zbekiston aholisining mexanik harakatini ifodalovchi quyidagi jadval ko'rsatkichlaridan bilib olsangiz ham bo'ladi.

O'zbekiston aholisining mexanik harakat ko'rsatkichlari (ming kishi)

3-jadval

No	Ko'rsatkichlar	1989 y	2000 y	2010 y	2020 y	2022 y
1	Ko'chib kelganlar: soni	83,9	145,9	139,8	191,1	214,8
	Koeffitsiyentlarda	4,2	5,9	4,9	5,6	5,9
2	Ko'chib ketganlar: soni	167,3	212,5	183,8	203,6	221,3
	Koeffitsiyentlarda	8,4	8,6	6,4	5,9	6,1
3	Mexanik harakat saldosini: soni	-83,4	-66,6	-44,1	-12,5	-6,5
	Koeffitsiyentlarda	-4,2	-2,7	-1,5	-0,3	-0,2

Statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ushbu yillarda mamlakat aholisi ko'chib ketganlar hisobidan kamaygan. Lekin keyingi yillarda ko'chib kelganlar soni ko'payganligi sababli, ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni tenglashmoqda.


Ichki migratsiya turli sabablarga asosan bo'lishi mumkin. Bunday sabablarga

yangi yerlarni o‘zlashtirish, hududlarda yangi yirik ob’ektlarni qurib, foydalanishga topshirish va shu kabilar. 1970-1980 yillarda Mirzacho‘l dashtini o‘zlashtirish uchun aholi zich joylashgan Farg‘ona viloyatidan, Samarqand viloyatining tog‘li hududlaridan aholi yoppasiga ko‘chirib keltirilgan.

Migratsiyada chet mamlakatlarda ko‘chib kelganlar va boshqa mamlakatlarga ko‘chib ketganlar muhim ko‘rsatkichdir. Statistik ma’lumotlarga asosan 2018 yilda O‘zbekistonga boshqa mamlakatlardan 2850 kishi ko‘chib kelgan va asosan Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida joylashgan. O‘sha yili mamlakatdan 17579 kishi ko‘chib ketgan. Ular ham Toshkent shahridan, Toshkent va Navoiy viloyatlaridan bo‘lishgan.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida jami ko‘chib kelganlar soni 214,8 ming kishini tashkil etib, shundan erkaklar soni 85,6 ming kishini, ayollar soni 129,2 ming kishini, qishloq joylarda 50,5 ming kishini tashkil etdi.

2018-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasiga ko‘chib kelganlar¹




2-rasm. Aholining mexanik harakati ko‘rsatkichi

2022- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib kelganlar soni 214,8 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 85,6 ming kishini, ayollar soni 129,2 ming kishi, ko‘chib kelganlar soni shahar joylarida 164,3 ming kishini, qishloq joylarida 50,5 ming kishini tashkil etdi.

¹ <https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/demogpressreliz012023uz.pdf>

2018-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasiga xorijdan ko‘chib kelganlar



3-rasm. Aholining mexanik harakati ko‘rsatkichi

2022 yilda xorijdan ko‘chib kelganlar soni 2,3 ming nafarni tashkil etib, so‘nggi 5 yilda sezilarli kamaygan, ya‘ni 2018 yilga nisbatan, 0,6 mingga yoki 20,7 %ga kamayganligi kuzatildi.

Xorijdan doimiy yashash uchun ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

January-December 2022




4-rasm. Aholining tashqi mexanik harakati ko‘rsatkichi

Rasmdagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki 2022 yilda asosan Rossiya (813 kishi, ya‘ni jami ko‘chib kelganlarning 35%ini tashkil qilgan), Qozog‘istondan (716 kishi) ko‘chib kelgan. Rossiya va Ukraina urushi munosabati bilan 2023 yilda Rossiya Federatsiyasidan yanada ko‘proq aholi ko‘chib kelish kutilmoqda. Eng kam

Turkmaniston Respublikasidan ko‘chib kelgan (38 kishi, ya’ni 1,6 %).

Mexanik harakat ko‘rsatkichidan biri bu ko‘chib ketish hisoblanadi. Mamlakat aholisi 2022 yil davomida mamlakatdan ko‘chib ketganlar soni 221,3 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 88,5 ming kishini, ayollar soni 132,8 ming kishini, qishloq joylardan 75,5 ming kishini tashkil etdi.


2018-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasidan ko‘chib ketganlar²



5-rasm. Aholining mexanik harakati ko‘rsatkichi

2019 yildan 2021 yilgacha mamlakat hududidan ko‘chib ketganlar soni yildan-yilga ko‘payib borayotganini ko‘rish mumkin. Lekin 2022 yilda esa bu ko‘rsatkich oldingi yillarga nisbatan kamaygan.

2018-2022 yillarda mamlakatdan xorijga ko‘chib ketganlar




6-rasm. Aholining mexanik harakati ko‘rsatkichi

2022 yilda xorijga ko‘chib ketganlar soni 8,8 ming kishini tashkil etib, so‘nggi 5 yilda sezilarli kamaygan bo‘lib, 2018 yilga nisbatan 8,8 mingga yoki 50,0 %ga kamaygan.

² <https://stat.uz/uz/default/press-revizlar/34336-2023-3>

Xorijiy mamlkatlarga doimiy yashash uchun ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

January-December 2022



7-rasm. Aholining mexanik harakati ko‘rsatkichi

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2022 yilda O‘zbekistondan xorijiy mamlakatlarga ketgan ichida eng ko‘p Qozog‘istonga 6985 kishi (79,5 %) va Rossiyaga 1441 kishi (16,4 %) ko‘chib ketishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Population Hits 6 Billion. Дата обращения: 30 сентября 2017. Архивировано из оригинала 10 августа 2017 года. World Population Hits 6 Billion
2. O‘zbekiston demografik yillik to‘plami. 2017-2021 yil. Toshkent-2022. Statistika to‘plam.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Spisok_gosudarstv_i_zavisimix_territoriy_po_nasel_eniyu
4. <https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/demogpressreliz012023uz.pdf>
5. Babanazarova Sevara, & Sharofiddinov Jakhongir. (2022). Study of Population Statistics (On The Example of Population Statistics of Uzbekistan). *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.663>